

**FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING
LINGVOKULTUROLOGIK JIHATI**

Jumayeva Durdona

Buxoro davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilimizdagi frazeologik birliklar qatlamining lingvokulturologik xususiyatlari zamonaviy adabiyotda samarali ijod qilayotgan adib Ulug'bek Hamdam hikoyalari misolida yoritilgan. Iboralarning asar badiiyatiga ta'siri, lingvokulturologiyadagi o'rni badiiy asarlardagi misollar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ibora, lingvokulturologiya, tilshunoslik, frazeologiya, ma'no, badiiyat, madaniyat, frazeologik birlik, so'z, tushuncha.

**ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ
ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АСПЕКТ**

Джумаева Дурдона

Студент Бухарского государственного университета

Аннотация. В данной статье рассматриваются лингвокультурологические особенности фразеологических единиц в современном узбекском языке на примере рассказов писателя Улугбека Хамдана, успешно работающего в современной литературе. Влияние выражений на художественность произведений, их место в лингвокультурологии анализируется на примерах из художественных произведений.

Ключевые слова: выражение, лингвокультурология, лингвистика, фразеология, значение, художественность, культура, фразеологическая единица, слово, понятие.

**LINGUOCULTURAL ASPECT OF
PHRASEOLOGICAL UNITS**

Jumayeva Durdona

Student of Bukhara State University

Annotation. This article examines the linguocultural features of phraseological units in the modern Uzbek language, using the example of stories by Ulugbek Hamdam, a writer actively contributing to contemporary literature. The impact of expressions on the artistic quality of works and their role in linguocultural studies are analyzed through examples from literary texts.

Keywords: expression, linguoculturology, linguistics, phraseology, meaning, artistry, culture, phraseological unit, word, concept.

KIRISH

Insoniyat paydo bo'libdiki, jamiyatda insonlar ma'lum bir ko'rinishda bir-biri bilan aloqada bo'ladi. Bu aloqani biz "til" deb ataymiz. Til shakllanar ekan, o'zi bilan birga xalqning tarixini, madaniyatini, an'ana va qadriyatlarini, o'zligini shakllantirib, davomiyligini ta'minlab boradi. Shu jihatdan xalqlarning ijtimoiy hayoti va tilini bir-birini taqozo etuvchi bir butunlik sifatida qabul qilamiz. Bu haqida bir qancha olimlarning fikrlari ham mavjud. Ular tilni o'zida madaniyatni aks ettiruvchi belgi sifatida qarashadi. Til va madaniyat bog'liqligi haqidagi dastlabki fikrlar V. Gumboldt qarashlaridan boshlangan. Ayni davrga kelib bu bog'liqlik yangi bir soha – lingvokulturologiya sifatida shakllandi va taraqqiy etib kelmoqda. Tilshunos olim Viktor Voloshinovning fikricha, til madaniyat va ijtimoiy tizimning aksidir, shuningdek, til orqali insonlar o'z madaniyatlarini ifodalaydi va tasavvur qiladi.

Har bir tilda yashayotgan ma'lum vositalar, birliklar shu xalqning ijtimoiy hayotini, o'y-xayollarini, millatning hayot manzarasini aks ettiradi. Bunday vositalar qatoriga birinchi o'rinda frazeologik birliklarni kiritishimiz lozim.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

Frazeologizm til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma'noviy tabiatga ega bo'lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi. Frazeologizm ibora, frazeologik birlik, turg'un birikma, barqaror birikma, frazeologik birikma atamaları bilan ham yuritiladi[1;129].

Frazeologik birliklar nutqni chiroyli chiqarish, mazmunli fikrni dalillash, nutqqa jozibadorlik bag'ishlash kabi vazifalarni bajaradi. Biz kundalik nutqimizda juda ko'p frazeologik birliklarni qo'llaymiz. Ma'lum bir hodisaga guvoh bo'larkanmiz, shu xususdagi ibora, maqol yoki

kimningdir so'zlari yodimizga keladi. O'zbek xalqi purma'no so'zga, o'git-u naqlarga boy xalq sanaladi. Ajdodlarimiz azaldan o'zining hayotiy muammolarini – mehnat mashaqqati, g'am-anduhi, rohat-farog'ati, muvaffaqiyat va mag'lubiyati, rasm-rusumlari – hamma-hammasini maqol va matallarda, naql va barqaror iboralarda ko'zgudagidek aks ettirib keladi. Xalqning til boyligi – uning boyo'qdor, serjilo leksikasining frazeologiya qatlamining boyligi bilan ham o'lchanadi. O'zbek tili – ona tilimizning juda boy, ma'nodor, jozibali va rang-barangligi Navoiy zamonidayoq isbotlangan. Maqollar xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribalari, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat'iy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda har bir so'zning ma'no xilma-xilligi, iboralarning turg'unligi, shaklliy barqarorlik ustunlik qiladi. Maqollar ham xalqning milliyligi, urf-odatlarini, asriy tajribalar natijasida chiqargan xulosalarini o'zida kas ettiruvchi xalq og'zaki ijodi namunasi sanaladi. Maqollarda ma'lum ma'noda millatning madaniyati aks etadi[2;98].

U yoki bu tilning frazeologik birliklari insoniy munosabatlarning ko'z ilg'amas rang-barangligini aks ettiradi. Bu yerda ham baxt, sevgi, ajablanish, istehzo, nafrat, qiziqish, xavotir; bu yerda insonning to'g'riso'zligi, iroda kuchi, halollik, oliyjanoblik, aql, chaqqonlik, harakatchanlik, qaysarlik, ham ahmoqlik, sergaplik, xasislik, badjahllik – ya'ni insonning barcha salbiy va ijobiy xususiyatlari mavjud; bu yerda o'xshashlik va farq, boshlanish va tugash (ibtido va intiho), ko'plik va ozlik, birlik kelishmovchilik va kurash; tug'ilish, qarindoshlik, yosh, o'lim; baholash, muvaffaqiyat — muvaffaqiyatsizlik, haqiqat va yolg'on, tartib va tartibsizlik, farovonlik va kambag'allik, xatolar va jazo va shunga o'xshash boshqa juda ko'p tushunchalarning tavsif va tasvirilar mavjud[4;135].

MUHOKAMA

Masalan, tilimizdagi “do'ppisini osmonga otmoq”, “do'ppisi yarimta” kabi iboralarni olaylik. Ulardagi “do'ppi” komponenti o'zbek milliy koloritini ta'minlash vazifasini bajargan. Ana shunday katta ahamiyatga ega birliklarni badiiy asarlarda qo'llash orqali ijodkorlar o'z asarlarida ta'sir pozitsiyasini kuchaytiradi, asar yanada o'qishli, tushunarli bo'ladi. Quyida bugungi kunda ko'plab kitobxonlar e'tiborini qozonayotgan ijodkor Ulug'bek Hamdam hikoyalarida frazeologik birliklarning qo'llanilishi misolida o'zbek millatiga xos lingvokulturologik ma'nolarni tahlil qilamiz:

Ulug'bek Hamdamning “So'z” hikoyasida tilimizdagi jozibador birliklardan o'rinli va ajoyib tarzda foydalanilgan. Hikoya davomida bunday birliklar hikoyaning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

NATIJALAR

Ayniqsa, *erning zavqu shavq bilan aytgan askiyalaridan xotinning ichaklari naq uzilgudek bo'ldi*. (“So'z”) Ushbu gapdagi **“ichaklari naq uzilgudek bo'ldi”** iborasi “qotib-qotib kulmoq”, “ko'p kulmoq” ma'nosiga teng[3]. Iborada kulgi bilan bog'liq xalqona tasavvur aks

etgan. Kulgi madaniy kontekstda insonlar o'rtasidagi yaqinlikni ifodalaydi. Shuningdek, xalq tilida kulgi holati jismoniy jarayonlarga qiyoslab, tananing ichki holatini tasvirlash orqali berilgan.

Ortimizga qarasam, ko'nglim yayraydi: bir o'g'il, bir qizni tarbiyalab elga qo'shibmiz. Martabali joylarda ishlab dunyomizni bezabmiz. Yeganimiz oldimizda, yemaganimiz ortimizda bo'пти. ("So'z") O'ziga to'q, biror narsaga muhtojligi bo'lmasdan hayot kechirgan er **"yeganimiz oldimizda, yemaganimiz ketimizda bo'пти"** deya nutqiga zeb beradi[3]. Ushbu ibora xalqning farovon hayot haqidagi qarashlarini ochib beradi. O'zbek madaniyatida turmushning yaxshiligi va to'kin-sochinligi yuqori qadrlanadi. Bu holat xalqona tasvirda aks etadi.

Har ikki ibora xalq hayoti va madaniyatiga oid chuqur semantik qatlamlarni o'z ichiga oladi. "Ichaklari naq uzilgudek bo'ldi" kulgi orqali ijtimoiy muloqotning iliqqligini bildirsa, "Yeganimiz oldimizda, yemaganimiz ortimizda bo'пти" iborasi o'zbek xalqining hayotiy ideallaridan biri bo'lgan to'kin-sochinlikka ishora qiladi.

Qiziq, tushgacha havo biram ochiq, biram yoqimli ediki, qarab kishining bahri dili qulf urardi... ("So'z") Gapdagi **"bahri dilini qulf urardi"** iborasi orqali personajning kayfiyati ko'tarilgani tasvirlangan[3].

Goho esa mana shunaqa munozaralar cho'zilib ketar va Husanning yuragi xunolud tortib, tashqariga chiqar, hovlidagi daraxtlar ostida soatlarcha kezinib, ba'zan ularga dardini aytib hovuridan tushardi. ("Musulmon") Ushbu gapdagi **"yuragi xunolud tortib"** iborasi zerikmoq, siqilmoq ma'nosida, **"hovuridan tushardi"** iborasi esa unga zid ravishda, yengil tortmoq, ahvoli yaxshilanmoq ma'nosida qollangan[3].

Ular bilan Hasan ham chiqib kelib, o'rikning ostida bir bahya oyoq ildi. ("Musulmon") **"Oyoq ilmoq"** frazmasi to'xtamoq, bir joyda turib qolmoq ma'nosini ifodalash uchun foydalanilgan[3].

Ulug'bek Hamdam hikoyalarida bunday birliklarni juda ko'p qo'llagan. Iboralardan tashqari maqollar, hikmatli so'zlardan ham unumli foydalangan:

uchun *Er-u xotin – qo'sh xo'kiz, hademay baravar ishga tushib ketishdi. ("So'z")*

Xuddi aytimdagi kabi: "Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug'". Ammo bir tomoniga yorug', ikkinchi yog'iga esa qorong'i, deb darj etilgan ushbu tanga kelib-kelib uning hayotida teskari tushib o'tiribdi: avval yorug' tomoni bilan, so'ngra qorong'isi. ("So'z") O'zbek xalq madaniyatida er-xotin o'rtasidagi birgalikda ishlash va oila mas'uliyatni bo'lishish qadriyat hisoblanadi. Ushbu ibora xalqning oilaviy birdamlik haqidagi tushunchalarini aks ettiradi. "Qo'sh xo'kiz" metaforasi orqali oiladagi mehnat birligi va uyg'unligi ko'rsatilgan.

Qo'sh xo'kiz qiyosiy obrazi dehqonchilik bilan shug'ullanadigan xalqning hayot tarzini va

mehnatni qadrlash madaniyatini ifodalaydi. Bu obraz xalqning mehnat hayoti bilan bog'liq madaniy kodlardan biridir.

Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylag'ay, Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa obod aylag'ay. Alisher Navoiy (*"Musulmon"*) Navoiy bu satrda inson qalbining holatini va ma'naviy kamolotning zaruriyatini ta'kidlaydi. Buzuq qalb, boshqa dunyo qarashlariga va diniy etika va ahloq me'yorlariga mos kelmaydi. Navoiy nazarida, qalbni tozalash va uni obod qilish, haqiqiy baxtga erishishning yo'lidir. **Ka'ba** – Islom diniy madaniyatida eng muhim va muborak joylardan biri bo'lib, bu yerga haj amalga oshiriladi. Ka'ba Islomning markaziy diniy ramzi sifatida o'rganiladi. Navoiy bu yerni "vayron bo'lsa" deb ta'riflab, umrning haqiqiy baxtiga erishish uchun inson qalbini toza va ixlosli qilish zarurligini ifodalaydi.

Xotir shod aylash – Xotira va qalbni tinchlantirish, uning ajoyib va go'zal his-tuyg'ular bilan to'lishi, bu jarayon o'ziga xos bir ma'naviy poklanish sifatida tasvirlanadi. Bu, shuningdek, insonning ma'naviy kamolotga erishishining asosiy omillaridan biri sifatida keltirilgan. Navoiy so'zlarida qalbni tozalash, hayotning maqsadini aniqlash, shaxsiy kamolot va jahonni yaxshilashga intilish kabi olijanob g'oyalar mujassamdir. Bu satrda din, madaniyat va etik qadriyatlar mustahkam o'rin tutadi. Bu hikmatli so'zni muallif epigraf sifatida qo'llagan. Shu hikmatdagi ma'no butun hikoya davomida singdirib borilgan. Shu hikoyaning yana bir o'rnida Allohning elchisidan nasihat keltiriladi: *Allohning elchisidan: "Kichik sinovlar kelganda bo'yin tovlamay, sabr qilish kerak edi, endi senga yordam berishning iloji yo'q", degan javobni olgach, dunyo ko'ziga qorong'i bo'lib o'zini yo'qotadi..("Musulmon")* Ushbu nasihat tarkibiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, yana bir nechta frazeologik birliklar qo'llanganligining guvohi bo'lamiz: **"bo'yin tovlamoq"**- biror ishni bajarishdan, unga qatnashishdan bosh tortmoq; **"dunyo ko'ziga qorong'i bo'lmoq"**- hech narsa ko'zga ko'rinmasligi, ahamiyatsiz holatda bo'lishi; "o'zini yo'qotmoq"- gangib qolmoq, dovdirab qolmoq[3].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklar badiiy asarlarda personajlar nutqining ta'sirchanligi, so'z qo'llash san'ati, fikrni aniq va uslubiy bo'yoqlar bilan yetkazib beradi va shu bilan birga so'zlovchiga yoki asar qahramoniga xos xususiyatlarni ochishga ko'maklashadi. Tilimizning frazeologizm qatlamidagi ravishda yangi birliklar bilan boyib boradi. Ular esa millatimizning madaniy olamini, xarakter-xususiyatini namoyon etib turuvchi muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sayfullayeva R. Va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Buxoro-2021.
2. Darvishov I. Lingvokulturologiya fanidan ma'ruzalar matni. Darslik. Namangan-2021.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Toshkent-1978.
4. Mamatov A. Zamonaviy lingvistika. Toshkent-2019.
5. Ziyoz.uz sayti Ulug'bek Hamdam hikoyalari.